



THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL DIAGNOSIS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Niyozova Maftuna Normaxmat qizi ¹

¹ Teacher of the Department of Preschool Education Methods, Faculty of Preschool Education, Termez State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4898802>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2021

Accepted: 25th May 2021

Online: 30th May 2021

KEY WORDS

Basics of pedagogy, scientific approach, ability, leadership of the institution, skills, goals

ABSTRACT

This article focuses on the study of ways to implement pedagogical diagnostics in preschool education, the scientific justification of the importance of pedagogical diagnostics in preschool children, as well as the development and implementation of scientific guidelines.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANI AMALGA OSHIRISHNING AHAMIYATI

Niyozova Maftuna Normaxmat qizi ¹

¹Termiz davlat universiteti Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021

Ma'qullandi: 25-May 2021

Chop etildi: 30-May 2021

KALIT SO'ZLAR

Pedagogika asosi, ilmiy yondashuv, qobiliyat, muassasa rahbarligi, ko'nikma, maqsad

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asosan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik diagnostikani amalga oshirish yo'llarini o'rganish, maktabgacha yoshdagi bolalarda pedagogik diagnostikaning ahamiyatini ilmiy asoslash hamda ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish haqida so'z yuritiladi.

Ma'lumki, bolaning bilimi, malaka va ko'nikmalarini o'lchash va tashxislash pedagogik diagnostikaning vazifasidir. Mana shu maqsadni ro'yobga chiqarish yo'l-yo'riqlari, metodik mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim masalalardan biridir. Pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha bo'lib, o'quvchi shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi.

Savol tug'ilmoqda:

- bola qobiliyati, imkoniyati, bilimi, egallagan ko'nikmalarining o'lchovi bormi?
- bolaning bilish va ko'nikmalariga belgilashga o'qituvchi aralashgani ma'qulmi yoki o'ziga uzi baxo bergani avfzalroqmi?

Mana shu savollarga eng maqbul asoslarda javob berish pedagogik diagnostikaning predmetidir. Mana shu maqsadni ro'yobga chiqarish yo'l-yo'riqlari, metodik



mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim vazifadir. Mazkur maqolada ushbu savollarga yechim topishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Malaka, ko'nikma, metodik mexanizm, metod, tarbiyachi, diagnostik jarayon, loyihalash, tahlil, tashxis, erkin rivojlantiruvchi muhit, o'yin, mashq, markazlar, faollik

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasiga bolalarning kelgusida maktab bilimini yaxshi o'zlashtirishi, maktabga uning yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Maktabgacha yondashuvining yengil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, jismoniy faoliyatini amalga oshirish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi alohida ahamiyatga egadir.

Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda psixologik pedagogik diagnostikaning o'rni, ahamiyati qanchalik katta ekanini hech kim inkor qilmaydi.

Ma'lumki, bolaning bilimi, malaka va ko'nikmalarini o'lchash va tashxislash pedagogik diagnostikaning vazifasidir. Mana shu maqsadni ro'yobga chiqarish yo'l-yo'riqlari, metodik mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim masalalardan biridir.

Shunday qilib, diagnostika yorqin namoyon bo'luvchi individual-psixologik, psixofiziologik xususiyatlar asosida olingan ma'lumotlarni taqqoslash bilan alohida kishi yoki ma'lum shaxslar guruhi borasida xulosa chiqarish demakdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarining qobiliyat va layoqatlarini har tomonlama rivojlantirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogika jarayonining mahsuldorligi pedagogning o'z tarbiyachilarini yaxshi bilishga, ta'lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashga bog'liq harakat qiladilar.

Taniqli pedagogik olim Matserman pedagogik diagnostikani "o'quvchi o'zlashtirishi bilan, o'quv materiallarini to'g'ri tanlash, maqsadni to'g'ri yo'naltirish mezonidir" deb hisoblaydi. Shu boisdan ham, pedagogik diagnostika birinchidan, bolaga individual ta'lim berishni jadallashtiradi, ikkinchidan, davlat va jamiyatni ta'limga qo'ygan talablaridan kelib chiqib tarbiyalanuvchi bilimini to'g'ri adolatli baholashni ta'minlaydi, uchinchidan, boshlang'ich ta'limiy mezon, kriteriyalar orqali tarbiyalanuvchilarni guruhdan - guruhga o'tishida, mutaxassislikka qabul qilishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi.

Zamonaviy pedagogik diagnostika bolalarning atrof-muhitga munosabatini baholash uchun bir qator metodikalardan foydalanishni, shu jumladan, guruhdagi o'rtoqlariga nisbatan emotsional xayrixohlikni, bolalar jamoasining yetukligini va shular asosida mazkur guruhda tarbiya dasturlari tuzishni ko'zda tutadi. Shunday qilib, tarbiyachi tomonidan mavjud metodikalar asosida bolalarni o'rganish va metodik apparatning keyingi rivoji yagona maqsad emas, balki jamoa rivojlanishining omili hisoblanadi. Hozirgi sharoitda bolalar jamoasidagi o'quv-tarbiyaviy ishlar



samaradorligini oshirishning muhim yo'li uni pedagogik diagnostika asosiga qurish hisoblanadi. Pedagoglar bolalarni bilishi, rejalashtirilgan o'quv-tarbiyaviy jarayonga diagnostik komponentni kiritishi bilan amalga oshiradi.

Har qanday psixologik-pedagogik diagnostika shaxsning kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajasini, o'quv jarayonining tashkil qilinganlik darajasini ko'rsatib berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Diagnostik jarayonida o'rganilayotgan ob'ektning kelajagi, ertangi kuni ham taraqqiyot tendensiyalari, ham ma'lum omillar ta'sirining oqibatlarini ochib berilishi kerak. Shu holdagina prognoz mohiyatidan kelib chiqqan holda ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilayotgan xatolar, shaxs taraqqiyotidagi ko'zga tashlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, to'g'ri yo'lga solish imkoniga ega bo'lamiz. Shu sababli psixologik-pedagogik diagnostika metodlarining prognostik bo'lishi eng muhim talablardan biridir.

Tarbiyachi bilimlarni tekshirish orqali tarbiyalanuvchining o'quv materialini qanday idrok etib tushunganligini qanday fikr yuritayotganligini, dasturda belgilangan o'quv materiallarini qay darajada umumlashtirib olganligini aniqlaydi hamda keyingi o'quv materiallarini o'rganish ta'lim sifatini yaxshilash yo'llarini belgilaydi. Shu bilan birga tarbiyalanuvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini o'rganish va tekshirish ularning o'qishga bo'lgan munosabatini, tirishqoqligini, o'ziga talabchanligini, bilimga, ega bo'lgan qiziqishini bilishga imkon beradi.

Shuningdek, bolalarning xotirasi, bilish qobiliyatining qay darajada o'sganligi, ularning mustaqil ishlashga ko'nikma va malakalarni qay darajada egallaganliklari aniqlanadi. Tekshirish vaqtida o'quv materiallari esga olinadi va

tarbiyalanuvchilarning sezish, idrok qilish, fikrlash qobiliyatlari ham o'sib boradi. Bilimdagi notekisliklarni aniqlash ularni to'ldirib va navbatdagi o'zlashtirish bosqichiga ko'tarish maqsadida diagnostikalash amalga oshiriladi. Diagnostikalash quyidagi maqsadlarni amalga oshiradi:

- tarbiyalanuvchilar o'zlashtirish darajasini diagnostikalash;
- bilimlardagi yetishmovchiliklarning oldini olish;
- aniqlangan yetishmovchiliklarni to'ldirish maqsadida maxsus topshiriqlar ishlab chiqish;
- maxsus topshiriqlar bajarish soatlarini belgilash;
- yakuniy diagnostik tahlil qilish;

Diagnostika ta'lim texnologiyasining navbatdagi bosqichi bo'lib, uning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Asosiy o'zlashtirishdagi kamchiliklar soatini aniqlash, har bir tarbiyalanuvchining bilim darajasini aniqlash, rejaning borishiga tuzatishlar kiritish yo'li bilan ta'lim jarayonining natijasi kafolatganligini ta'minlaydi.

Ta'lim xizmatlarining sifatsizligi sabablari tarbiyachilarni kasbiy tayyorgarligi, eskirib qolgan ta'lim dasturlari va pedagogik texnologiyalar va bolalar bilan ishlash usullari, innovatsiyalarning tezkor to'plami, ota-onalar bilan aloqalarning yo'qligi, moddiy muhitni shakllantirishda noto'g'ri tushuntirishlar bo'lishi mumkin. Ularni aniqlash, maslahatchi bilan murabbiylik qilish tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan ishlashni takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar berish, maktabgacha ta'lim muassasasining ta'lim yo'nalishi bo'yicha metodik ishlarning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha boshqaruv qarorini



ishlab chiqish bo'yicha reja ishlab chiqish lozim.

Shunday qilib pedagogik diagnostika bu bolaning individual xususiyatlari va

rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkonini beradi. Diagnostika pedagogga o'z faoliyatini to'g'ri amalga oshirayotganini tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova X., Raximova L. "Bolaga yo'naltirilgan ta'lim" dasturini tashkil etish. T.: 2012 y
2. Аванесов. В. С. "Педагогическая диагностика", Основы научной организации педагогического контроля в высшей школе, 2002.
3. Asadov M, Alimxodjayeva S.N. "Psixologik tashxis metodikalari" (Olti yoshli bolalarni maktabga psixologik pedagogik tayyorligini o'rganish" Toshkent 2007
4. Лаврова Л. Н., Чеботарева И. В. "Педагогическая диагностика в детском саду в условиях реализации" ФГОС ДОООО «ТЦ Сфера», оформление, 2017
5. Максимов В. Г. " Педагогическая диагностика в школе". – М.: АСАДЕМА, 2002.
6. Nizomova. K "6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o'rganish" Metodik qo'llanma T-2006
7. Овсянникова. С. К. "Педагогическая диагностика и коррекция в воспитательном процессе" Учебно-методическое пособие Издательство Нижневартковского государственного гуманитарного университета 2011
8. www.mtv.uz.
9. www.kitob.uz.
10. www.jlmt.uz.